



UDK:378

Gulruxsor ERGASHEVA,
Renessans ta'lim universiteti dotsenti, PhD
E-mail: flowerface0706@gmail.com

Toshkent davlat pedagogika universiteti professori, p.f.n S.Adilova taqrizi asosida

CHARACTERISTICS OF TEACHING UZBEK LANGUAGE AS A FOREIGN LANGUAGE TO PRIMARY AND SECONDARY LEVEL LANGUAGE LEARNERS

Annotation

The article contains information about the peculiarities of teaching Uzbek as a foreign language, the levels of language teaching, age groups of learners and their characteristics. There are examples of topics in lessons with recommendations on the differences in language teaching to foreigners at A2 and B1 levels, the structure of lessons and how to develop language aspects.

Key words: Language teaching, language skills, level, assessment, language teaching program, aspects of language teaching.

ОСОБЕННОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА ДЛЯ ИЗУЧАЮЩИХ ЯЗЫК НАЧАЛЬНОГО И СРЕДНЕГО УРОВНЯ

Аннотация

В статье содержится информация об особенностях преподавания узбекского языка как иностранного, уровнях преподавания языка, возрастных группах обучающихся и их характеристиках. Представлены образцы тем уроков, а также рекомендации по различиям в преподавании языка иностранцам на уровнях A2 и B1, структуре уроков и способам развития языковых аспектов.

Ключевые слова: Обучение языку, языковые навыки, уровень, оценка, программа обучения языку, аспекты преподавания языка.

O‘ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA BOSHLANG‘ICH VA O‘RTA DARAJADAGI TIL O‘RGANUVCHILARNI O‘QITISHNING O‘ZIGA XOSLIKLARI

Annotatsiya

Maqolada o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishning o‘ziga xosliklari, til o‘qitish darajalari, o‘rganuvchilarning yosh guruhlari va ularning xususiyatlari haqida ma’lumot keltirilgan. A2 va B1 darajadagi xorijliklarga til o‘qitishdagi farqlari, darslarning tuzilishi va til aspektlarini qanday rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan darslardagi mavzular bo‘yicha namunalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Til o‘qitish, til ko‘nikmalari, daraja, baholash, til o‘qitish dasturi, til o‘rgatish aspektlari.

Kirish. Dunyodagi turli iqtisodiy, siyosiy, demografik, psixologik va madaniy vaziyatlar tufayli til o‘qitish va o‘rgatish masalasi oxirgi 30 yillikda yanada dolzarblashdi. Bunday sharoitda endi rivojlanayotgan mamlakatlarning davlat tilini saqlab qolish, turli kurashlar maydonida bu tillarning yo‘qolib ketish xavflarini bartaraf etish muhimdir.

Ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida xorijiy tilni o‘qitish, o‘rgatish va baholash, xorijiy til o‘rgatish kompetensiyasini rivojlantirish, samaradorligini oshirish, interfaol ta’limni mediateknologiyalar asosida tashkil etish, kompyuter lingvodidaktikasini rivojlantirish, til portfoliosi texnologiyasini ta’lim amaliyotiga ommalashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu o‘zbek tilining xorijiy til sifatida o‘qitilishi jarayonini modernizatsiyalashni, o‘qib tushunish, tinglab tushunish, gapirish va yozish ko‘nikmalarini o‘zbek madaniyatiga hamohang tarzda olib borish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Respublikamizda o‘zbek tilini ona tili, davlat tili sifatida maqomini mustahkamlash, xorijiy til va ikkinchi til sifatida o‘qitish borasida so‘ngi 10 yillikda qonun qarorlar qabul qilish (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5850-sonli farmoni, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til

siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 29 - oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari), bu boradagi ishlarning yanada jadallashishiga sabab bo‘lmoqda. Xususan, O‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zbek tili jamg‘armasi, Davlat tilini rivojlantirish va malaka oshirish departamenti va uning viloyat bo‘linmalari, yuqori davlat tshkilotlarida davlat tili masalalari bo‘yicha maslahatchi lavozimining joriy etilganligi, Vatandosh tashkiloti faoliyatining takomillashtirilganligi, xorijdagi vatandoshlar bilan turli tanlovlar tashkil etilayotganligi, ularning farzandlariga o‘zbek tilini o‘rgatish maqsadida turli platformlar, dasturlar ishlab chiqilayotganligi va boshqalar shular jumlasidandir.

Tadqiqot metodologiyasi. So‘ngi yillarda o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘rganish ta’lim olish, O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini olib borish, ishlash, tadqiqot qilish, madaniyatlarni o‘rganish va boshqa maqsadlarda ancha rivojlandi. Ayni kunlarda o‘zbek tilini turli yoshdagi chet elliklar o‘rganmoqda, biz ularni quyidagicha tasniflashni joiz deb topdik.

Maktab yoshidagi xorijliklar (Xorijiy fuqarolarning farzandlari, xorijda yashovchi vatandoshlarimizning farzandlari),

xorijlik o‘zga tilli katta yoshdagi vatandoshlar, maktab yoshidagi turkiy til egasi bo‘lgan qardoshlar,

katta yoshdagi qardoshlar,
katta yoshdagi xorijliklar

Tahlil va natijalar. Biz o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda til o'rganuvchilarning yosh xususiyatlarini quyidagicha tasniflashni lozim topdik.

7 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan o'zbek tilini o'rganuvchilar

10 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan o'zbek tilini o'rganuvchilar

16 yosh va undan katta bo'lgan o'zbek tilini o'rganuvchilar

“O'zbekona” dasturining B1 darajasida o'rganiladigan mavzular

Oilaviy muammolar
Talablik – oltin davrim
Toshkent-non shahri.
Xaridingiz uchun rahmat !
O'lguday ochman !
Tabiatni asrang
Kasbim faxrim
Virtual olam
Yaxshi dam – mehnatga hamdam.
Olimpiada
Texnologiya asri

Grammatika. Bu oyna o'zbek tilining universal grammatikasini osondan qiyinga qarab, til o'rganuvchiga oson va qulay shaklda o'rgatish uchun xizmat qiladi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, platformadagi Grammatik mavzular tanlanishida 4 yillik tajriba sinov ishlariga tayanildi.

O'zbekona onlayn oynasida onlayn tashkil etilgan darslar joylandi. Shu bilan bir qatorda, keyinchalik to'g'ridan-to'g'ri onlayn darslarni tashkil etish va natijalarni muhokamasi uchun bog'lanish imkoniyati ishga tushirilishi rejalashtirilgan.

Gapirish. Bu oyna boshlang'ich va o'rta darajadagi gapirish mavzulari va namunalarini o'zi ichiga olgan.

Yozish. Saytdagi barcha ko'nikmalarni rivojlantirish orqali olingan bilimlarni umumlashtirish xususiyatiga ega bu oyna ham boshlang'ich va o'rta darajadagi mavzular va yozish mashqlarini qamrab olgan.

Videolar. Saytda videolar deb nomlangan oyna ham mavjud bo'lib, unda boshlang'ich darajadagi o'zbek tili darslari joylangan. Videolar tinglovchi talabini inobatga olgan holda 3 daqiqadan 8 daqiqagacha davom etadi. Bu esa til o'rganuvchining zerikib qolishini oldini olish bilan bir qatorda, “tez o'zlashtiryapman”, “oson ekan” qabilidagi fikrlar paydo bo'lishi asnosida motivatsiyani kuchaytiradi. Pandemiya davrida o'zbek tili darslari onlayn shaklda olib borildi. Videolar qismida ba'zi onlayn shakldagi darslar ham joylangan bo'lib, bu video-darslar, til o'rganuvchi o'zini jamoada his etishi va qay darajada o'zlashtirayotganini boshqalar bilan taqqoslash imkoniyatini beradi.

7. Madaniyat. O'zbek madaniyatini o'rganishga ehtiyoj kundan kunga oshib bormoqda. Internet tarmoqlarida o'zbek madaniyatini haqqoniy ko'rsata oladigan manbalar yetarli emas. Bu oynani ham aynan mavjud talabni inobatga olib tashkil etdik. Bu oyna uchun MO'TUL jamoasi[110] a'zolari tomonidan videoroliklar tayyorlanmoqda.

8. Bog'lanish. Bu yacheyka orqali til o'rganuvchi saytga mas'ullarga bog'lanishi va zarur savollarga javob olishlari mumkin. Platformadagi har bir oyna doimiy ravishda boyitib boriladi va o'rganuvchilarning yaxshi o'zlashtirishini ta'minlash maqsadida qo'shimcha oynalar qo'shib boriladi.

“O'zbekona” platformasi andragogik yoshdagi xorijliklar, qardoshlarga uchun o'zbek tilini o'rganish uchun qator imkoniyatlarni yaratib beradi:

- istalgan joyda, istalgan vaqtda o'rganish imkoniyati;
- xohlagan til darajasini o'rganish imkoniyati;
- tizimli til o'rganish imkoniyatini;
- mustaqil va autentik manbalarga asoslangan til o'rganish imkoniyatini;
- o'zbek madaniyati, urf - odatlari bilan tanishish imkoniyatini;

- har bir aspektni chuqurroq yodashuv asosida o'rganish;

- universal grammatikani o'rganish;
- integrativ yondashuv asosida qiziqarli va oson o'rganish imkoniyatini taqdim etadi.

A2 va B1 daraja boshlang'ich va o'rta darajaning oralig'i hisoblanadi. Shuning uchun ham o'qituvchidan jiddiy yondashuv talab etiladi. Chunki, bu vaqtga kelib til o'rganuvchining maqsadi aniq ammo motivatsiyani susaytgan bo'ladi. O'qituvchi bu darajalarda o'zbek tili madaniyati bilan tanishtirish madaniyatga oid birliklar, o'zbek tili tarixiga oid turli misollar voqealar, urf-odatlarini tushuntirib berish orqali o'quvchilarni darga qiziqtirib borishi zarur. Tajribamiz davomida shuni aniqladiki, A2 va B1 darajadagi til o'rganuvchilarda o'zbek madaniyati darsi boshqa darslarga qaraganda ancha qiziqarliroq bo'ladi. Bu darjada o'zbek tilining so'zlashuv va yozish uchun zarur bo'lgan grammatikasini o'rgatib borish ham maqsadga muvofiqdir.

Til o'rganish haqida gapirganda CEFR darajalari haqida aniq va to'liq ma'lumotga ega bo'lish zarur. Chunki bu ma'lumotlar, til bilimni baholash uchun bu juda muhim. CEFR bo'yicha til bilimi darajalari butun dunyo tan olgan bo'lib xalqaro tan olingan sertifikatlar shu standartlar asosida yaratiladi. Butun dunyo tan olgan A2 dan B1 ga ko'tarilish uchun CEFRdagi ko'rsatmalarni tushunish va bu 2 darajani farqlash kerak. CEFR da til o'rganuvchilarning til bilimi 6 darajaga ajratiladi: A1, A2, B1, B2, C1 va C2.

A1 boshlang'ich darajani, C2 esa tabiiy til egasining darajasini anglatadi.

A2 da siz o'zbek tilining asosiy tushunchalariga egasiz, lekin B1da siz tildan mustaqil foydalanishga o'ta boshlaysiz. Bu shuni anglatadiki, siz kundalik vaziyatlarning ko'pini hal qila olishingiz, fikr bildirishingiz va mulohaza yuritishingiz kerak. Bu darajada so'z boyligi kengayadi, grammatika murakkablashadi.

O'zbek tilini A2 dan B1 ga oshirish uchun o'rganuvchilarning til ko'nikmalarini turli sohalarda, jumladan grammatika, lug'at va talaffuz, o'zbek madaniyati, yozuvda rivojlantirishga e'tibor qaratishingiz kerak. Ushbu jihatlarni takomillashtirish orqali o'zbek tilida o'quvchilarning samarali muloqot qilishiga erishish mumkin.

A2 va B1 o'rtasidagi asosiy farqlardan biri grammatikadagi murakkablik darajasidir. A2 da siz hozirgi, o'tgan va kelasi kabi zamonlar bilan tanishsiz, lekin B1 da siz zamonlarni chuqurroq o'rganishingiz, fe'l nisbatlaridan va mayllaridan grammatik kategoriyalardan unumli foydalanishingiz kerak.

Yana bir muhim farq - so'z boyligining kengayishi. A2 darajasida lug'at boyligi cheklangan bo'lsa, B1da siz turli xil

so'z va iboralardan foydalanib, fikringizni yanada samaraliroq ifodalay olishingiz kerak.

Bu sizning muloqot qobiliyatingizni oshirish uchun ko'proq sinonimlar, iboralar, maqollar, birikmalar, o'xshatishlarni ni o'rganishni anglatadi.

A2 dan B1 ga o'tishda talaffuz ham yaxshilanishi bilan xarakterlanadi. A2 da sizning talaffuzingizda hali ham sezilarli xatolar va ba'zi tovushlar bilan bog'liq qiyinchiliklar bo'lishi mumkin. Biroq, B1da siz urg'uni kamaytirish va tabiiyroq va ravonroq ovoz berish ustida ishlashingiz kerak.

Umuman olganda, A2 va B1 o'rtasidagi asosiy farqlar grammatika murakkabligi, so'z boyligini kengaytirish va talaffuzni yaxshilashda yotadi. Ushbu sohalarga e'tibor qaratish

va ularni faol ravishda mashq qilish orqali siz o'zbek tili ko'nikmalaringizni oshirib, A2 dan B1 ga ishonch bilan o'tishingiz mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilini o'qitishda A2 dan B1 ga o'tish bosqichi muhim hisoblanib, bunda til o'rganuvchi o'zbek tilining leksik, grammatik va madaniy aspektlari bilan yaqindan tanishadi. Til o'rgatuvchi o'qituvchilar zimmasida xorijliklarga o'zbek tilini o'qitishga mo'ljallangan barcha darajalarga mos metodik, madaniy bazani yaratish yotadi. Zeroki, til o'rgatish resurslari boy va xilma-xil bo'lsa, o'rgatish jarayoni qulay va oson bo'ladi va shu bilan bir qatorda, o'rganuvchilar soni oshadi bu esa tilning umrboqiyiligi ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Türkçenin yabancı dil olarak öğretimi programı. Türkiye maarif vakfı. İstanbul, 2020. B.320.
2. Thepedagogical knowledge base of four TESOL teachers. Modern Language Journal 90/1:48 66. Bartels, N. (ed.). 2005.
3. Richards, J.C. and Rogers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching (2nd Edition). Cambridge: Cambridge University Press. 2001.p
4. Amarech A. The Roles of the Teachers and Students in the Integrative Language Teaching Approach and Factors that Affect the Use of the Approach in Actual Classroom: Review Article. ISSN 2224-5766 (Paper) ISSN 2225-0484 (Online) DOI: 10.7176/RHSS , Vol.9, No.15, 2019, p-29.
5. Ergasheva G. Androgogik ta'limda o'zbek tili o'rganuvchi xorijliklar uchun leksik, grammatik, fonetik qobiliyatlarni takomillashtirish masalalari. O'zbekiston milliy universiteti xabarlari, 2022, [1/2] ISSN 2181-73-24. УДК: 811.161 (13.00.00; №15)
6. Ergasheva G. Issues of creating online platform for teaching Uzbek as a foreign language. Academica. An International Multidisciplinary Research journal. India. 2020. p- 800-806. ISSN: 2249-7137 Vol. 10, Issue 4, April 2020 Impact Factor: SJIF 2020.=7.13. 10.5958/2249-7137.2020.00168.8 <https://saarj.com/wp-content/uploads/ACADEMICIA-APRIL-2020-FULL-JOURNAL.pdf>
7. Kuznetsova Y. Evolution of Foreign Language Teaching Methods. Italy. Mediterranean Journal of Social Sciences. 2015. P 248.